

**Фонетика. Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi**  
 (Ma'ruza, amaliy mashg'ulot ishlari )

Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular	Mustaqil ta'limga oid savol-topshiriqlar, tavsiyalar	Bajari-lish muddat-lari	Hajmi (soatda)
Kirish. Tilshunoslik va til.	Tilni ijtimoiy-individual hodisa sifatida tavsiflang. Tilshunoslik bo'limlarining til sathlari va birliklari bilan bog'liqligini izohlang. Hozirgi adabiy o'zbek tilining dialektal asoslari haqida gapiring. Dunyoda qo'shimchasiz tillar ham bor. Bu tillarda o'zaro fikr almashish qanday amalgalashiriladi?	1-2 hafta	6
Fonetika. Nutq tovushlari va ular bilan bog'liq hodisalar.	Tovush va fonema munosabati haqida gapiring.Tovush ko'pmi, fonema ? Unli va undosh tovushlar atamalari tovushlarning tabia-tiga qanchalik mos? Fikringizni asoslang.	3-4 hafta	4
	Tovushlarning farqlovchi va farqlanmaydigan(umumiyligi) belgilarini izohlang. Sonor va jarangli nimalariga ko'ra farqlanadi?	5-6 hafta	4
	Kombinator va pozitsion o'zgarishlar qanday o'zgarishlar? Misollar asosida izohlang. Tovushlar nutq jarayonida o'zgarishining sabablari nimada? Ko'proq o'zbek xalqiga xos tovush o'zgarishlarini aytинг.	7-8 hafta	8
Yozuv va uning turlari. O'zbek yozuvlari.	O'rta Osiyo xalqlariga taalluqli qanday yozuvlarni bilasiz? Bobur va yozuvning qanday aloqasi bor? Biz lotin yozuviga ikkinchi marta murojaat qilyapmiz. Buning sabablari nimada deb o'ylaysiz? Yozushi yo'q xalqlar xam bor ekan.Bu haqdagi fikringiz qanday? Yozuvning vazifasi bugunga kelib kengaydi. Bu asosan nimalarda ko'rindi?	9-10 hafta	6
	Fonografik yozuvning boshqa turdag'i yozuvlardan qanday afzalligi bor? Fonografemalarda shakl va mazmun munosabatini yoriting. Siz bilgan tillarning qaysi biri yozuvida poligraflar ko'p? Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining kirill alifbosini asosidagi eski o'zbek yozuvidan ayrim afzal tomonlarini izohlang. Transkripsiya nima va nima uchun ishlataladi?	11-12 hafta	6
Orfoepiya.	Orfoepiyaning ahamiyati nimalarda ko'rindi? Unli tovushlar orfoepiyasiga misollar keltirib izohlang. Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq qaysi xildagi tovushlar bilan bog'liq? Orfoepiya va orfografiya munosabatini konkret misollar yordamida izohlang.	13-14 hafta	4
Orfografiya . Asosiy imlo qoidalari.	Orfografiya qachon, qanday sharoitda paydo bo'lган? Orfografiyaning qaysi tamoyili asosiy hisoblanadi va nima uchun? Tarixiy-an'anaviy tamoyil asosida yozilgan so'zlarga misollar keltiring va izohlang. Ikki xil ko'rinishi ham to'g'ri yozilgan deb hisoblanadigan so'zlarga misollar keltiring.Ularning yozilish tamoyillari bir xilmi yoki farqlar bormi? Orfografik tamoyillar va qoidalarning ahamiyati nimalarda ko'rindi?	15-16 hafta	8
	Imloda uslubiy tamoyilning qo'llanish o'rinarini ko'rsating. Asos(o'zak)larning yozilishi bilan bog'liq imlo qoidalari aytинг. Imlo qoidalari qaysi qo'shimchalarining yozilishi bilan bog'liq? Ajratib yoziladigan so'zlarning qo'shma so'z va so'zshakliga taalluqlilarini ajratib ko'rsating. Grafik belgilari bor, orfografik belgilari ham bormi? Yozuvning grafika tomonidan boshqa-riladigan va orfografiya tomonidan tartibga solinadigan tomonlari haqida ma'lumot bering.	17-18 hafta	8
	Qo'shma so'zlarning yozilishi bilan bog'liq qanday imlo qoidalari bor? Qisqartma so'zlarning yozilishi bilan bog'liq imlo qoidalari misollar keltiring. Kitob so'zning yozilishida qaysi imlo tamoyili qo'llangan? Kitobsevarda-chi? Tinish belgilari-ning ishlatalishi tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi? Tinish belgilarning ishlatalish usuliga misollar keltiring va izohlang. Badiiy asar tilida adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish hollari ko'p uchraydi.Fonetik,orfoepik, orfografik meyor buzilishlariga misol toping va buning sabablарini izohlang. Badiiy asar tili va orfografiya masalasida qanday o'ziga xos tomonlar bor?	19 hafta	8